



## NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-oktabr

151-5-70-Q/24

Konimex tuman hokimiligi

### **Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 24 maydagi PQ-3001 sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-Q-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan 2025 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan

### **Q A R O R   Q I L A M A N :**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxonalar, tashkilot va muassasalarda 2025 yil uchun 10 foizgacha miqdorida jami 159 ta (10 %) kvota ish o‘rinlari, jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 22.6 foiz (36 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 49.0 foiz (78 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 6.9 foiz (11 kishi);

nogironlar uchun 6.2 foiz (10 kishi);

pensiyaoldi yoshdagi shaxslar uchun 2.5 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 5.0 foiz (8 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1,2 foiz (2 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan boshqa toifalari (oilaviy, maishiy zo'rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun) 6.2 foiz (10 kishi) miqdorida ish o'rinlari zaxirasi belgilansin va tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar kesimida ilovadagi jadval asosida tasdiqlansin.

2. Korxonalar, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish joylarining ko'rsatib o'tilgan miqdorini Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-Q-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo'yilishini) ta'minlash;

ish joylari sanitariya-gigiena normalariga va xodim o'z mehnat majburiyatlarini bimalol bajarishini ta'minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun 2024 yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025 yilning 20 apreldan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo'yish) to'g'risidagi, ya'ni har bir kvota toifasi bo'yicha ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma'lumotlarni va buyruq nusxalarini Konimex tumani Kambag'alikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga taqdim etish topshirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 41-moddasiga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

4. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-Q sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy

muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

5. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-Q sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ushbu ish o‘rinlaridan ortiq tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini Konimex tumani Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish Davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

6. Tashkilotlar har oyda hisobot oyidan keyingi oying 5 kunigacha tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi Nizomning 5-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etish belgilansin.

7. Konimex tumani Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga besh kun muddatda ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e‘tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta‘minlasin.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma‘muriy javobgarlikka tortish ta‘minlansin.

9. Konimex tumani Kambag‘alikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonidan ortiq ishga qabul qilgan tashkilotlarga subsidiyalar ajratilishi ta‘minlansin.

10. Ushbu qarorning rasmiy nashrda e‘lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta‘minlash tuman hokimligi axborot xizmati rahbari zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror kuchga kirgan kundan etiboran, tuman hokimining 2023 yildagi 04 oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 127-5-70-Q-23 sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Saitov zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Konimex tumani hokimi**



**RO‘ZIYEV  
RUSLAN.NASIROVICH**



						Сафарбарлик чакирувчи захирасига киритилган шахслар учун	Кичик ёшли болалари бўлган ишламаётган аёллар учун	Оилавий (маиший) зўровонлик натижаси да жабрланганлар учун							Режа
						Режа	Режа	Режа	Режа	Режа	Режа	Режа	Режа	Режа	Режа

**Ишловчилар сони 100 ва ундан ортиқ кишини ташкил қиладиган корхона ташкилотлар:**

1	201204 514	Навоийуран ДК Зафаробод кон бошқармаси	4335	30		4	22	4							
2	200012 834	Конимех тумани Тиббиёт бирлашмаси	614	20	2	8	4	1	2	1					2
3	307122 468	Иссиклик Манбай ДУК Конимех тумани филиали	65	3		1	1	1							
4	200013 904	Конимех тумани	151	6		1	1	1		1	1				1

		Йўллардан фойдаланиш Давлат унитар корхонаси												
5	204563 565	Ободонлашт ириш бошқармаси	200	9	2	1	1	1	1	1	1			1
6	203161 125	№2 мактаб	117	4			2	1						1
7	300024 824	"НАВОИЙ СУВ ТАЪМИНО ТИ" АКЦИЯДО РЛИК ЖАМИЯТИ Конимех туман бўлими	157	5		1	1	1	1					1
		<b>Жами:</b>	<b>5639</b>	<b>77</b>	<b>4</b>	<b>16</b>	<b>32</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>3</b>	<b>2</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>6</b>
<b>Ишловчилар сони 20 кишигача ва 100 та кишигача бўлган корхона ташкилотлар:</b>														
8	200012 873	ДСЭНМ	38	1			1							
9	200014 087	Конимех тумани Давлат Ўрмон хўжалиги	84	3		1	1	1						
10	200012	KASB-	89	3	1	1	1							

	<b>841</b>	HUNAR MAKTABI												
11	<b>203235 546</b>	4-сон Болалар ва мусиқа саънат мактаби	<b>54</b>	<b>2</b>	1		1							
12	<b>207061 563</b>	БУСМ	<b>48</b>	<b>2</b>		1	1							
13	<b>200012 913</b>	Маданият бўлими	<b>40</b>	<b>1</b>		1								
14	<b>200012 880</b>	Ветеринари я булими	<b>36</b>	<b>1</b>			1							
15	<b>305087 949</b>	Ирригация бўлими	<b>24</b>	<b>1</b>		1								
16	<b>200012 826</b>	Халқ таълим бўлими	<b>57</b>	<b>2</b>		1	1							
17	<b>207129 849</b>	BARKAMO L AVLOD VOLALAR MAKTABI	<b>36</b>	<b>1</b>		1								
18	<b>203161 093</b>	№1 мактаб ИДУМ	<b>55</b>	<b>2</b>	1		1							
19	<b>206879 960</b>	№3 мактаб	<b>33</b>	<b>1</b>			1							
20	<b>206879 977</b>	№4 мактаб	<b>26</b>	<b>1</b>			1							
21	<b>206879 984</b>	№5 мактаб	<b>40</b>	<b>1</b>			1							

22	206879 992	№6 мактаб	36	1			1						
23	203161 133	№7 мактаб	58	2			1						1
24	206880 004	№8 мактаб	47	2		1	1						
25	203161 140	№9 мактаб	53	2			1			1			
26	203161 118	№10 мактаб	49	2	1		1						
27	206880 012	№11 мактаб	46	2		1	1						
28	203161 157	№12 мактаб	39	1		1							
29	206880 029	№13 мактаб	33	1			1						
30	206880 036	№14 мактаб	38	1			1						
31	206880 044	№15 мактаб	34	1			1						
32	206871 711	№16 мактаб	85	4		1	2						1
33	206880 068	№17 мактаб	25	1			1						
34	206880 075	№18 мактаб	31	1			1						
35	206880 083	№19 мактаб	36	1		1							
36	206880	№20 мактаб	51	2			1			1			

	<b>090</b>													
37	<b>206880 108</b>	№21 мактаб	<b>33</b>	<b>1</b>			1							
38	<b>200012 858</b>	№22 мактаб	<b>43</b>	<b>2</b>			1			1				
39	<b>206880 115</b>	№23 мактаб	<b>31</b>	<b>1</b>			1							
40	<b>206880 234</b>	№24 мактаб	<b>33</b>	<b>1</b>		1								
41	<b>206880 130</b>	№25 мактаб	<b>40</b>	<b>1</b>			1							
42	<b>206880 147</b>	№26 мактаб	<b>40</b>	<b>1</b>		1								
43	<b>206880 273</b>	№27 мактаб	<b>36</b>	<b>1</b>			1							
44	<b>206871 901</b>	№28 мактаб	<b>77</b>	<b>3</b>		1	1			1				
45	<b>309894 052</b>	№29 мактаб	<b>52</b>	<b>2</b>		1	1							
46	<b>206880 241</b>	№30 мактаб	<b>37</b>	<b>1</b>			1							
47	<b>206880 258</b>	№31 мактаб	<b>31</b>	<b>1</b>			1							
48	<b>206880 179</b>	№32 мактаб	<b>28</b>	<b>1</b>			1							
49	<b>206880 186</b>	№33 мактаб	<b>31</b>	<b>1</b>			1							
50	<b>206880 194</b>	№34 мактаб	<b>28</b>	<b>1</b>			1							

51	206880 265	№36 мактаб	44	2			1			1				
52	206880 226	№37 мактаб	45	2			1							1
53	207062 854	1-сонли "Акмарал" ДМТТ	33	1	1									
54	301245 310	2-сонли "Олтин калит" ДМТТ	68	2		1	1							
55	207078 485	3-сонли "Салтанат" МТТ	24	1			1							
56	305969 783	4-сонли "Гулсезим" МТТ	25	1			1							
57	207306 382	5-сонли "Балдаурен" МТТ	23	1			1							
58	207026 834	8-сонли "Парвоз" ДМТТ	32	1		1								
59	207062 862	9-сонли "Булдуршин" ДМТТ	28	1			1							
60	207062 847	11-сонли "Гунча" ДМТТ	42	1		1								
61	207315 134	12-сонли "Олтиной" ДМТТ	68	3	1		1							1

62	308012 944	13-сонли "Кувонч" ДМТТ	33	1		1								
63	306992 280	10-сонли "Болажон" ДМТТ	23	1			1							
63		Жами:	2349	82	6	20	46	1	0	5	0	0	0	4
		Ҳаммаси:	7988	159	10	36	78	11	4	8	2	0	0	10